
Qo'ziqorindan mo'may daromad olinmoqda

Qo'shtepa tumanidagi "Qumtepa" mahallasida yashovchi Behzod Salimov intensiv usulda qo'ziqorin yetishtirishni yo'lga qo'ydi. U faoliyatni kengaytirish maqsadida mahalla hokim yordamchisiga murojaat qildi. Hokim yordamchisi Shukrullo Toshtemirovning tavsiyasiga ko'ra "Rohman Baraka Imkon" MCHJ rahbari Behzod Salimovga 100 million so'm imtiyozli kredit ajratildi.

Shundan so'ng Behzod Salimovning ishlari tez orada yurishib ketdi va mehnati ortidan daromadga kirdi. Hozirda 4 nafar doimiy, 10 nafar mavsumiy ishichi yordamida intensiv qo'ziqorinning "Shampinion" navi yetishtirilib, 2000 kg dan ortiq mahsulot mahalliy bozorlarga sotilib, qo'shni davlatlarga eksport qilinmoqda.





